

## “TANAZZUL” - ILK O’ZBEK ROMAN-GEPTOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7856243>

**Asadullayev Quddusbek Lutfullo o’g’li**

*Guliston davlat universiteti magistranti*

*quddusbekasadullayev1998@gmail.com*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu ilmiy maqolada dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, geksalogiya va gektalogiya kabi roman shakllari o’zbek adabiyoti va jahon adabiyotiga qiyosan o’rganildi. Sa’dixon Mavlavixon o’g’lining “Tanazzul” tarixiy gektalogiyasi o’zbek adabiyotining dastlabki geptalogiyasi sifatida mulohaza yuritildi.*

## “ТАНАЗЗУЛ” - ПЕРВАЯ УЗБЕКСКАЯ РОМАН-ГЕПТОЛОГИЯ

### **Аннотация.**

*В данной научной статье были сопоставлены новые формы, такие как дилогия, трилогия, тетралогия, пенталогия, гексалогия и гектология, с узбекской литературой и мировой литературой. Историческая гектология «Таназзул» сына Садихана Мавлавихона обсуждалась как первая гептология узбекской литературы.*

## “TANAZZUL” - THE FIRST UZBEK ROMAN-HEPTOLOGY

### **Abstract.**

*In this scientific article, novel forms such as dilogy, trilogy, tetralogy, pentalogy, hexalogy and hectology were compared to Uzbek literature and world literature. The historical hectology “Tanazzul” by the son of Sa’dikhan Mavlavikhon was discussed as the first heptology of Uzbek literature.*

### **Kalit so’zlar.**

*roman, tarixiy roman, romanlar turkumi, dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, geksalogiya, geptalogiya.*

Har qanday milliy adabiyotning qadr-qimmati, bashariyatning tafakkuriga va romanchilik rivojiga qo’shgan hissasi bilan baholanadi. Chunki roman janri millat tafakkurini o’zida ifoda etadi. “Roman antik adabiyotda paydo bo’lganida, yozuvchilar ko’pincha maishiy mavzudagi miflarning an’anaviy syujetlaridan

foydalanim, ularga emotsiyal olam manzaralarini olib kirganlar. Qahramonlarning ichki olami tasviri bu asarlarda voqeabandlikning soyasida qolgan” [1]. Roman janri XIX asrga kelib jahon adabiyotida realistik roman janri shakllana boshlaydi.

O’zbek adabiyotida jadidchilik harakatining buyuk namoyondalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat yoxud Milliy roman” nomli asari va Mirmuhsin Shermuhamedovning “Befarzand Ochilidiboy” asarlari o’zbek romanchiligidagi dastlabki izlanishlar deb baholangan edi. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanini bilan o’zbek romanchiligiga asos soldi. Shu tariqa, o’zbek romanchiligi ham rivoj topa boshlaydi. Yozuvchilarining bu janr ustidagi izlanishlari natijasida roman janri ancha taraqqiy topib, keyinchalik roman shakllari (dilogiya, trilogiya va hk) ham shakllana boshladi. O’zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham yozuvchilar turkumli romanlar yozish ustida izlanishlar olib borishgan.

Adabiyotshunoslikda bir necha qismdan iborat asarlar romanlar turkumi deyiladi. Jalon adabiyotida “Book series”, ya’ni “Kitoblar seriyasi” tarzida qo’llanadi. Biroq turkumli romanlar necha qismdan iboratligiga qarab, 1-mono, 2-di (dilogiya), 3-tri (trilogiya), 4-tetra (tetralogiya), 5-penta (pentalogiya), 6-geksa (geksalogiya), 7-gepta (geptalogiya), 8-okta (oktagiya), 9-nona (nonalogiya), 10-deka (dekalogiya) kabi nomlanib, “logia” so’zi “muloqot” degan ma’noni bildiradi. Bu turkum romanlarning dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, geksologiya, geptalogiya shakllari bo’yicha jahon adabiyotida ko’plab yozuvchilar muvaffaqiyatli izlanishlar olib borishgan. O’zbek adabiyotida romanning dilogiya, trilogiya, tetralogiya va pentalogiya shakllarida yozilgan asarlar uchraydi, ammo 6 qismli geksalogiya va 7 qismli geptalogiya shakllari yo’q. Hozir roman turkumlari ichida biz “Geptalogiya” haqida fikr yuritmoqchimiz.

“Geptalogiya (/həp’tælədʒi/; yunoncha ἑπά- hepta-, «yetti» va -lógía, «muloqot») nomi bilan ham tanilgan, yetti xil asardan tashkil topgan qo’shma adabiy yoki qissaviy asardir”[1]. Geptalogiya 7 mustaqil kitobdan iborat bo’lishi, bir syujet asosida birlashgan, bir umumiy mavzu va g’oyaga ega bo’lmog’i lozim.

Jahon adabiyotidagi Edvard Meryonning “Hayot aylanishi”, Marsel Prustning “Yo’qotilgan vaqtini qidirishda”, Karlxaynts Stokxauzenning “Nur”, Gore Vidalning “Imperiya haqidagi hikoyalar”, J.K.Roulingning “Garri Potter” kabi 7 qismdan iborat asarlar geptalogiya deb ataladi [1]. Hattoki, “Martin Rinkartning “Lyuter”, Tomas Vulfning “Yevgeniy Gant”, Tornton Uaylderning “Inson asrlari”, Aleksandros Kotziasning “Kronos bolalari”[1]. kabi rejalshtirilgan ammo

tugallanmay qolgan geptalogiyalar mavjud. Aleksandros Kotzias "Kronos bolalari" geptalogiyasining to'rttasini yakunlagan. Qolgani tugallanmagan.

O'rghanayotgan asarimiz 2019-yilda "O'qituvchi" nashriyotidan 5000 nusxada chiqqan, sirdaryolik yozuvchi Sa'dixon Mavlavixon o'g'li tomonidan yozilgan 7 kitobdan iborat "Tanazzul" geptalogiyasi bo'lib, asarning har bir qismi 300-400 sahifadan va 7 qismdan iborat. Romanda, asosan, Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxonning hayoti va faoliyati, xonlikning boshqaruv tizimi, qolaversa, Markaziy Osiyodagi 3 xonlikning o'zaro munosabatlari, SSSRning Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olishdagi 4 bosqichli harakati va boshqa ko'plab voqealar aks ettirilgan.

"Tanazzul" tarixiy roman-geptalogiyasi o'zbek adabiyotining romanchilik tarixida muhim hodisa bo'ldi, deyish mumkin. Chunki o'zbek adabiyotida roman-geptologiya shaklida yozilgan asar yo'q edi. "Ushbu romanga o'zbek romanchiligining asoschisi bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining mantiqiy davomi sifatida qarash o'rini bo'ladi, bizningcha. Negaki asarda aynan Toshkent bekligining o'sha paytdagi hukmdori bo'lgan Xudoyorxonning akasi Mallaxonning olib borgan siyosati va uning ham atrofidagi beklar tomonidan o'z inisiga qarshi bosh ko'tarishiga undashlari bu orqali o'zlarining mavqelari va boyliklarini yanada ziyoda qilib olishga intilishlari aks ettiriladi" [2]. Asardagi tarixiy va to'qima obrazlar, bosh qahramon Xudoyorxon obrazini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Qahramonlarning xatti-harakati, nutqi, xarakteri yozuvchi tomonidan mohirona tasvirlanganki, bu kitobxonning zamon va maklonni his qilishiga katta yordam beradi. V.G.Belinskiy ta'kidlaganidek, "mamlakatning, asrning manzarasi, ularning odad va xulqlari tarixiy romanning har parchasida, garchi uning g'oyasini tashkil etmasa ham, bayon qilinadi. Shuning uchun tarixiy roman go'yo shunday bir nuqtaki, unda fan sifatida bo'lgan tarix, san'at bilan qo'shilishadi, u tarixning to'ldiruvchisi, uning boshqa bir tomonidir" [3].

Nazariyaga asosan, turkum romanlar mazmun va g'oyaviy birligini saqlagan holda alohida mustaqil asarlardan iborat bo'lmog'i kerak. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi turkum romanlar talablarini oqlaydi. Ya'ni asar "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida" va "Ufq bo'sag'asida" kabi 3 mustaqil asarlardan iborat. Ulardagi qahramonlar ham farq qiladi. Ammo butun asarning g'oyasi, mazmuni bitta: ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqining front ortidagi qahramonliklarini, ayanchli hayotini ko'rsatish. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-epopeyasi ham tetrologiyaga yaqqol

misol bo'la oladi. Asar "Jahongir Mirzo", "Umarshayx Mirzo", "Mironshoh Mirzo", "Shohruh Mirzo" kabi 4 mustaqil asarlar to'plamidan iborat. 20 yillik izlanish natijasida dunyoga kelgan bu asar O'zbek adabiyotidagi birinchi roman-epopeya sifatida ko'rilib, mukofotga ham loyiq ko'rilgan.

Jahon adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuqorida aytilgan romanlar turkumidagi qismlarning har biri g'oya va mazmun saqlangan holda mustaqil asarlardan iborat bo'lishi haqidagi nazariyaga oid qiziqarli hodisaga duch kelamiz. Dunyoga mashhur bo'lgan Ingliz yozuvchisi J.R.R.Tolkenning "Uzuklar hukmdori" roman-trilogiyasi mazmunan bitta kitob sifatida yozilgan, lekin hajmi tufayli uch qismga bo'lib nashr etilgan" [4]. Shu holatda ham u trilogiya deb ataladi. Yana bir mashur ingliz yozuvchisi J.K.Rouling qalamiga mansub 7 qismdan iborat "Garri Potter" [1] romanlar to'plami ham mazmunan bitta kitob, ammo 7 kitobga cho'zilib, geptalogiya nomi bilan ataladi. Yuqoridagi ikki romonlar turkumining har bir qismi alohida nom bilan ataladi, ammo qahramonlar o'zgarmagan holda syujet leniyasi uzluksiz davom etadi. Jahon adabiyotida bunday turkum romanlarni ko'plab uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Tanazzul" romani ham "Garri Potter" va "Uzuklar hukmdori" singari mazmunan bitta kitob bo'lib, 7 kitobga cho'zilgan. Yuqorida misol qilib keltirilgan ikki mashhur asardan farqli o'laroq, yozuvchi "Tanazzul" geptalogiyasining har bir qismini alohida nom bilan atamaydi. Shunchaki har bir kitobning xotimasida, "Birinchi kitob tugadi", "Ikkinchi kitob tugadi", "Uchinchi kitob tugadi" kabi jumlalar bilan yakunlaydi. Jahon adabiyotshunosligi tajribasidan va "Tanazzul" asarining xususiyatlarini o'rganishimizdan ma'lum bo'ladiki, mazkur roman turkum sifatida roman-geptalogiyaga xos belgilarni o'zida namoyon qilgan va mezon talablariga javob beradi. Shu ma'noda "Tanazzul" asarini o'zbek adabiyotidagi ilk roman-geptalogiya deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/>
2. Fayzullayeva O. Sa'dixon Mavlavixon o'g'lining "Tanazzul" tarixiy romani haqida. -B. 2.
3. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б. 17.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Uzuklar\\_hukmdori](https://uz.wikipedia.org/wiki/Uzuklar_hukmdori)